

MAKTAB MUSIQA O'QITUVCHILARI IJROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH.

Maxammatov A., Jumaev A,

JDPI Musiqa madaniyati

fakulteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ijrochilik qobiliyatlarini tarkib toptirish va shakllantirishni takomillashtirish masalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, musiqa o'qituvchisi, qobiliyat, ijrochilik, shakllantirish, takomillashtirish, ta'lim, tarbiya, musiqa idrok psixologiyasi, nazariy, amaliy, tafakkur, abstrakt, ahloq, manaviyat, qo'shiq, repertuar, ijodiy, tanqidiy.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib ularning qo'shiq aytib, kuy chalishida umumiy va musiqaviy rivojlanishlarida, madaniyatli musiqa muxlislarini tayyorlashdagi ahamiyati. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining "ijrochiligi" ni qanday tushunmoq kerak? Degan va shunga o'xshash savollar musiqa o'qituvchisidan o'z ishiga doimiy, ijodiy-tanqidiy munosabatda bo'lishni talab qiladi. O'quvchilarda musiqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy – uslubiy xarakterdagi tadqiqotlar olib borilgan.

Y.V.Nazaykinskiyning o'zining «Musiqa idrok psixologiyasi» kitobida individning tafakkuri, sensor (ko'rish, eshitish. his qilish) va kinetik (motor-harakat) hissiyot turlari va hayotiy tajribasi orasida aloqa mavjudligi qayd qilinadi.

Muallifning fikriga ko'ra, ushbu o'zaro aloqalar orqali tinglovchi va ijro etilayotgan asar orasida psixologik aloqa o'rnatiladi. O'quv-tarbiya jarayoniga majmuaviy va tizimli yondashuv zaruriyati hozirgi musiqa pedagogikasining dolzarb muammolarida xisoblanadi. Ya'ni, pedogog doim ko'tarinki ruhda bo'lishi, istalgan vaqtda o'z emotsional ko'tarinki kayfiyatini bolalarga o'tkaza olish kerak. Bunda ko'p narsa o'qituvchining hayotiy tajribasiga,

kuzatuvchanligiga, musiqaviy bilimlariga ham bog'liqdir. Darslar ham pedagogning aynan shu sifatlariga, yana uning tashabbuskorligi, ijodkorligiga tayanadi. O'qituvchi dasturga o'quv-tarbiyaviy zaruriyatdan kelib chiqqan holda o'zgarishlar kiritish mumkin. Bu o'zgarishlar esa uning shaxsiy ijobiy tajribasidan kelib chiqishi buning uchun musiqa o'zining barcha hayoti aloqalari va namoyishlariga ko'ra o'qituvchini harakatlantiruvchi kuchga, uning hayotini bir qismiga aylanmog'i kerak.

Bugungi kunda mamlakatimizda 500 dan ortiq bolalar xor studiyalari faoliyat ko'rsatib, ularning soni tobora ortib bormoqda. Ular o'quvchilarda qobiliyatlar rivojlanishiga poydevor yaratib, dunyoviy qarash, axloq va ma'naviy extiyojlarni shakllantirish zarur.

Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarning o'quvchilarda abstrakt tafakkurni rivojlantirishga e'tibor kuchayib, o'quv jarayonining tarbiyaviy jihatiga ahamiyat bir oz susaymoqda. Bu ayniqsa «Musika» predmetida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Haftada bir dars (45 daqiqa), uning 7- sinfgacha davom etishi va ba'zi holda maktab tadbirlariga qo'shib yuborilishi o'quvchilarni musiqaviy tarbiyalashni yuqori darajaga ko'tarishga to'sqinlik qilmoqda.

Bunday sharoitda o'quvchilarni musiqa olamiga olib kirish, ularni fan va amaliyotda samaradorligi tasdiqlangan faoliyat turlariga jalb qilish qiyin.

Musiqaviy malakalarni shakllantirish esa musiqani idrok qilish va ijro etishga doir ayrim harakatlarni qayta-qayta takrorlashni taqozo qiladi. Mashq, va xarakatlarning mohiyatini chuqur anglash uchun ular erkin, badiiy-ijodiy darajada bajarilishi kerak.

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqa darslarining ko'paytirilishi o'quvchilarni toliqtirmaydi, aksincha, ulardagi charchoqni emotsional –qiziqarli vaziyatlar tashkil qilish orqali tarqatishga xizmat qiladi. Ijodiy-bilish faoliyatida o'quvchilarning muhim axloqiy-ma'naviy sifatlari shakllanib, ma'naviy xayotining tarkibiy qismiga aylana bormoqda.

Me'yoriy hujjatlarda o'qituvchining yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishdagi roli aniq belgilab berilgan. Biroq musiqa o'qituvchisini ushbu faoliyatga kasbiy tayyorlashda hal etilgan bir qator masalalar bor.

Pedagogika institutlari musiqiy ta'lim yunalishida tahsil oluvchi talabalar bilan o'tkazilgan suhbatlar ularning aksariyatida o'qituvchilik kasbiga qiziqish pastligini ko'rsatmoqda. Shu sababli pedagogik ta'limining asosiy vazifasi ularni bolalarni musiqaviy tarbiyalashga yo'naltirish emas, balki ularni o'qituvchilik kasbiga qiziqtirishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Yosh o'qituvchilar musiqaning bolalarda qay darajada emotsional ko'tarinkilik hosil qilishini, musiqa darslarida jamoa jimligi, sukutining ahamiyati va uni yaratish muammolariga to'qnash keladilar. Musiqa darslarining o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishi kamlik qiladi. Ular musiqaning inson hayotida nima sababdan bunchalik katta ahamiyat kasb etishni bilishlari zarur. Aks holda, ularning musiqa mashg'ulotlariga «qiziqish» lari asta-sekin so'na boradi.

Hozirgi paytda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi musiqaviy pedagogikaning muhim muammolaridan biriga aylandi. Ushbu masalani ijobiy hal qilish yo'llaridan biri sifatida keyingi yillarda o'quvchilarning assotsiativ tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq musiqa o'qituvchilari faoliyatining tahlili bu ishda qator muammolar borligini ko'rsatmoqda. Musiqa studiyalarida musiqaviy idrokni rivojlantirishning ahamiyati katta, chunki studiyalarning asosiy vazifasi o'quvchilarni musiqani tushunish va sevishtga o'rgatishdir.

D.B.Kobalevskiy o'zining «Umumta'lim maktablarida musiqa dasturining asosiy tamoyil va uslublari» kitobida «musiqani faol idrok qilish –musiqa tarbiyasi va uning barcha tarmoqlarining asosidir» deb yozgan edi. Bu maqsad xor studiyalarining barcha mashg'ulotlarida amalga oshirilishi zarur. Buning ahamiyati ayniqsa yangi kelgan bolalar bilan o'tkaziladigan xor mashg'ulotlarida katta ahamiyatga ega. Chunki, ayni shu bosqichda ularning kelajakdagi musiqa rivojlanishning poydevori yaratildi. Xor sinflari mashg'ulotlari bevosita ijrochilik, konsertlar bilan bog'liq. Buning uchun esa quyidagi musiqiy-didaktik tamoyillar:

- 1) o‘quv-pedagogik ishlarda foydalaniluvchi material hajmini oshirish;
- 2) qisqa muddatda zaruriy ijro malakalarini egallash;
- 3) musiqa ijrochiligining nazariy yo‘nalishini boyitish;
- 4) mashg‘ulotlarda o‘quvchi-ijrochilarida mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlikni to‘la namoyon qilishni talab qiluvchi ish uslublarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xor ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlari, uning majmuaviy - xarakterda ekanligini ta’kidlash bilan birgalikda ularning nafaqat xor bo‘lib kuylash, matn ustida ishlash, balki qo‘shiq ijrosini rejalashtirishni, musiqaviy ifoda vositalarini o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga olishini aytib o‘tish lozim.

Repertuar tanlash - o‘ta mas’uliyatli jarayon. Zero, bu o‘quvchilarda musiqa madaniyatini rivojlantirish sifatini belgilovchi muhim omildir.

Qo‘shiqni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda musiqiy xotira, tinglash qobiliyati rivojlanadi, vokal xor malakalari paydo bo‘lib, o‘quvchilar asar mazmunini, badiiy obrazlarini anglay boradilar. Shu sababli repertuar tanlashni biz uni quyidagi tamoyillardan kelib chiqqan holda belgilangani maxsul muvafaqiyat hisoblanadi :

-tarbiyaviy nuqtai nazardan-ushbu asar o‘quvchilar psixologiyasining shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin;

-pedagogik nuqtai nazardan qo‘shiqdan musiqaviylikning ayrim tamoyillarini rivojlantirishda qanday foydalanish mumkin bo‘ladi.

Qo‘shiqlarni tanlashda ularning emotsional ta’sirchanligi, badiiy qimmatini, yengil o‘zlashuvchiga e’tibor berildi; shuningdek, o‘quvchilarga musiqiy tushunchalar, musiqaning marsh, o‘ynoqlik, tasvir xususiyatlari, musiqiy ifoda vositalari bilan tanishtira borildi.

Endi shakllana boshlagan xor jamoasiga «konsert nomeri ijrochisi» deb qarash noto‘g‘ri bo‘lib, bu o‘quvchilar qobiliyatini rivojlantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda B.M. Teplov «Bir faoliyat bo‘yicha mashq tariqasida ijod qilish, chalish, chizish mumkin emas. Bola badiiy faoliyatining bir qismigina mahsulot yaratishga qaratilib, bu biron kishiga zarur bo‘lib, ta’sir ko‘rsata olishi kerak... Busiz

bolaning umumiy rivojlanishi o'rniga uning biror malakasigina rivojlana boradi l... xolos».

Shu tarzda fikrlar o'rganilsa, bolalar tomonidan yaratilgan har bir mahsulot pedagoglar tomonidan taklif qilingan quyidagi alohida yo'llar orqali taxlil etildi:

a) ijroda musiqaning xarakterini ochib berishga erishildimi?

b) ijrodan ko'zda tutilgan reja bo'yicha nimalar qilindi?

v) qanday kamchiliklarni qayd qilish mumkin va ularni qanday bartaraf qilish mumkin?

g) qo'shiqning badiiy matnini tinglovchilarga yetkaza olindimi?

Savollardan o'quv jarayonning yo'nalishi sezilib turadi, chunki asar ustida ishlash jarayonida uning harakteri, ijro rejasi, tahlil qilindi. O'rganish jarayonida musiqaning ifoda vositalarini murakkablasha borishi ta'minlandi. Ko'rgazmali qo'llanmalar va «modellar»dan foydalanish ishning samaradorligini rag'batlantirdi.

Bolalar ijro rejasini tuzish, yakka va jamoa bo'lib ijrosini tahlil qilishga jalb qilindi. Bunda loto shakldagi kartochkalar tayyorlab, tarqatish qo'l keldi.

Vokal ovozning tembr xususiyatlari va ovozni ishlatish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, bolalar ovozini rivojlantiruvchi asosiy usullardan biri – mashqlarda ko'proq ligato qo'llashdir. Ashulachilik ovozining tembr xususiyatlarini rivojlantirish uchun uzoq muddatli, birinchi qadamdan boshlanuvchi ta'lim talab qilinadi. Qo'shiq matni bilan tanishishda o'quvchilar she'rning asosiy g'oyasi, ma'no urg'ularining qo'yilishini o'rganib, mazmunini ochishga harakat qilishdi. Matnni ifodali o'qish, kuylash o'quvchilarda ijro rang barangligining o'sishi va til talaffuzi tozaligiga xizmat qildi. Matn tahlili musiqiy ifoda vositalarini o'rganish bilan uyg'un olib borildi. Tajribamizda xor mashg'ulotlariga tahlil usulining kiritilishi, ijro rejasini tuzishning o'quvchilar musiqaviy rivojlanishiga yordam berishi, asarni o'zlashtirishni tezlashtirishi, ongli yondoshuvga o'rgatish, ijroning har bir nozik jihati, urg'u, qochirim, zarbga rioya qilishga o'rgatishi kuzatildi. O'z navbatida ular bolalarning vokal-xor malakalarni egallashlariga ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xordagi o'quv jarayoni bolalar uchun mos shakllarda tashkil qilinganida o'quvchilarda musiqa idrokning

chuqurlashuviga, musiqiy til va uni shaxsiy ijroda ifodalash malakalari shakllana bordi.

Aynan shu bosqichda o'quvchilarda maxsus ijrochilik sifatlari bo'lmish jo'shqinlik, ilhomlanish, obrazga kirishib ketish, tinglovchilar bilan muloqotga kirishish va ularga ta'sir ko'rsatish malakalarini shakllantirish vazifalari belgilab olindi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli korxonalariga tayanganligidir. Ta'lim mazmunida pedagogik va musiqiy tayyorgarlik elementlarini kesishuvi yotadi.

Zamonaviy ilmiy-texnika rivojlanishining asosiy xususiyati, fan va texnika yutuqlarini inson faoliyatini barcha sohalariga joriy etishdan iboratdir. "Texnika"-so'zining ma'nosi kengaydi - endi u oddiy qurol vositalari bilan chegaralanib qolmay, o'z ichiga ma'lum bir ilmiy-texnika bilimlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni gumanitar va texnik tayyorgarligi quyidagilarni ta'minlashi zarur:

- birinchidan, yetarlicha yuqori darajadagi bilim, bu bilimlar ijro amaliyotida ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashga imkon berishi kerak;

- ikkinchidan-avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarali ishlay olishi uchun shaxsda xususiyatlar va dunyoqarashni shakllanishi;

- umumta'lim maktablarida va estetik vazifalarni yechimini topishda musiqiy ta'lim katta imkoniyatlarga egadir. O'quvchilarning ishlab chiqarish mehnati va musiqiy ta'lim jarayonida estetik prinsiplarini ruyobga chiqarishda, o'qituvchidan o'quvchilar nazariy bilimlarini mustaqil qo'llay oladigan vaziyatlarini yuzaga keltirish talab etiladi.

Musiqa o'qituvchilarini maxsus tayyorgarlik shakllarini ishlab chiqish nazariy darajadan amaliy darajaga o'tish, nazariy jihatdan ishlab chiqilgan o'qituvchilar tayyorlashni samaradorligini takomillashtirish yo'llari orqali amalga oshirilishi zarur. Pedagogika instituti talabalari zamon talabiga mos, o'quvchilarni professional ta'lim, musiqa va estetik tayyorgarligini amalga oshirish uchun

yetarlicha tayyorgarlik ko‘radilar. Bu esa tarixiy, nazariy, uslubiy fanlarni va maktabdagi pedagogik amaliyot bilan birlik bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi. O‘qituvchilar tayyorgarligiga mos ravishda barcha bilim va ko‘nikmalar, ta’lim mazmunining tarkibiy komponentlariga mos quyidagi guruhlarda aks etishi mumkin:

1. Musiqa eshitish;
2. Ijodiy faoliyat, ijrochilik;
3. Bilish faoliyati (musiqiy savodlilik);
4. Musiqiy san’atni bilib, faol tashviqot qilishda namoyon bo‘ladigan jamoat foydali faoliyati.

Talabalarga beriladigan barcha bilim va ko‘nikma guruhlarda o‘zaro bog‘liq bo‘lib, doimo rivojlanib boradi. Bilim va ko‘nikmalardan kelib chiqqan holda, maxsus o‘quv materiallar asosi aniqlanadi.

B.M.Teplov “Bunday musiqiy bilimlarning namoyon bo‘lishi har bir bolada o‘ziga xosdir.

Ba’zilarida tabiatan ular yaqqol namoyon bo‘ladi, boshqalarda esa ular faol musiqiy faoliyat davrida doimo namoyon bo‘lib, shakllanib boradi”-deb yozgan edi. Shunday qilib, bolalardagi musiqiy qobiliyatni inkor etib bo‘lmaydi, chunki ular ko‘proq ta’lim va tarbiyaga bog‘liq bo‘lib, ijobiy hissiyot va qiziqishlarni keltirib chiqaradi. N.L.Grodzenskaya o‘zining oxirgi maqolalarida o‘quvchilar bilan “Pedagogik topilmalari” bilan samimiy bo‘lishardi. U musiqa darslariga u yoki bu musiqiy asarini kiritishni taklif qilar, ular bilan ishlash uslublarini ochib berardi. “O‘quvchilar musiqa eshitadilar” (1969) kitobida u o‘quvchilarni eshitish madaniyatini shakllanishida musiqiy asarni tushunish yo‘llarini qisqa ta’riflab beradi. Musiqani qabul etishdagi aqliy va hissiy tuyg‘ularni birligini rivojlanishida N.L. Grodzenskaya musiqani tinglovchilarga chuqur ta’sir etishini va asar tahlili keyinchalik uni to‘laqonlik bilan tushunishga olib kelishini ko‘rib chiqdi. Talabalar N.L.Grodzenskaya “Musiqiy savodxonlik” tushunchasiga kiritgan musiqiy san’atning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarini musiqa tilini o‘ziga xosligini o‘rganadilar. N.L.Grodzenskaya musiqiy savodxonlikni madaniyatli

tinglovchini tarbiyalashda asosiy shart sifatida ko‘rib chiqadi. V.V.Asafevni ilgari surgan ishini asosiy holatlari asosida N.L.Grodzenskaya eshitish apparatini ko‘nikmalarini rivojlanishiga yordam beruvchi taqqoslash uslubini keng imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi. Shuningdek, uning fikricha musiqani eshitishni boshlang‘ich bosqichida bir-biridan keskin farq qiluvchi asarlardan lavhalar eshirish maqsadga muvofiqdir.

Musiqqa eshitish vaqtida N.L.Grodzenskaya kuylashda mavzularni, musiqiy asarlarni asosiy notalarini kiritib, o‘quvchilarga ularga yorqinligini, ifodaliligini nafaqat ma‘lum bir fan sohasidagi faoliyatda, balki ta‘lim jarayonini qonuniyatlarini o‘z aksini tez topishga yordam beradi. Bunda nafaqat o‘quv dasturlarini tanlash tizimini, balki barcha didaktik aspektlar orasidagi o‘zaro aloqalar tizimini tahlil etish zarurdir.

O‘qitishning asosiy tamoyillaridan biri bu mobillik tamoyilidir. Kasbiy mobillik tamoyili bo‘lajak musiqqa va ashula o‘qituvchilarini yangi texnik vositalarini va texnologik jarayonlarni tez o‘zlashtirib olishlari, doimo o‘z bilimlarini takomillashtirishni taminlaydi.

Shu bilan birgalikda ta‘lim mazmunida nazariy bilimlar zahirasi hamda bilim va ko‘nikmalarni shakllanishi yuqori darajada bo‘lishiga imkon beradi. Professional mobillik nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va psixologik aspektlarga ega. Unda shaxs rivojlanishini mahorat asoslarini rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi.

Har biri kasb o‘z xususiyatiga ega. Musiqqa o‘qituvchisining ham o‘ziga xos “sirlari” bor. Musiqqa bo‘lgan muxabbat, o‘zini bolalarga bag‘ishlash, musiqasiz uyg‘unlikda rivojlangan odam bo‘la olmaslikka ishonch o‘zining ishiga sodiqlik bu pedagog- musiqachi yashaydigan doimiy his tuyg‘ulardir.” Bu kasbning murakkabligi,- deb yozadi mashhur pedagog O.A.Aproksina-ham “O‘qituvchi”, ham “Musiqachi” tushunchalariga kiruvchi elementlarni o‘zaro bir-biriga jipsligini zaruriylikni aniqlash bilan ifodalansa, ularning har biri ko‘p qirrali tushuncha ekanligini unutmaslik zarur. Musiqqa o‘qituvchisi o‘quv tarbiyaviy ishlarni olib boradi, dunyoqarashni fikrlashni, talab va didni shakllantiradi. U

nafaqat o'z fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli ma'lum otli odam bo'libgina qolmay, balki bu so'zning keng ma'nosida jamoa shaxsi bo'lib qolishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boshlag'ich rubob darsligi. Q. Usmonov. T. O'qituvchi – 1995- yil.
2. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995- yil.
3. Rubob darsligi. X. Nurmatov. Toshkent. O'qituvchi 1993- yil.
4. X. Nurmatov – qashqar rubobi T. 2003
5. O'zbekiston Respublikasi madaniyati ishlari vazirligi – Rubob navolari T. 1993- y.
6. Sh. Rahimov – Dutor Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti. 2005- y.
7. X. Nurmatov qashqar rubobi taronalari T. G'.G'ulom nashriyoti 1989
8. X. Nurmatov «Rubob darsligi» o'qituvchi T. 1993
9. X. Nurmatov «O'zbek xalq musiqasi» O'qituvchi T. 1998
7. R. Xodjjeva Dutorim sozim manim. O'zbekiston nashriyoti 2001- y.
8. Sh. Raximov. «Cholg'u ijrochiligi». «Dutor». «Fan» nashriyoti 2005- y
9. Boshlangich rubob darsligi. Q. Usmonov. T.: O'qituvchi – 1995- yil.
10. O'zbek xalq milliy musiqa taronalari. Toshkent – 1995- yil.
11. Rubob taronalari. R. Hamroqulov. Samarqand – 2002.